

XALQ ERTAKLARINING DISKURSIV TAHLILI

Ismatov Asliddin Fazliddin o'g'li

*Renessans ta'lif universiteti
mustaqil izlanuvchisi, filologiya
fanlari nomzodi (PhD)*

Annotatsiya

Ushbu tezisda ertaklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi adabiyotning qadimiy janri sifatida ko'rib chiqilib, ularning diskursiv xususiyatlari o'rganiladi hamda ertak nutqining kommunikativ vazifasi, ramziy tasvirlar, metaforalar va o'ziga xos til birliklaridan foydalanish usullari tahlil qilinadi. Bu borada ertak nutqining janr xususiyatlari, milliy o'ziga xoslik, mualliflik mahorati va muloqot maqsadlari kabi jihatlar alohida e'tibor markazida bo'lib, ularning tilshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyati ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: *ertak nutqi, xalq ertaklari, milliy o'ziga xoslik, lingvomadaniy qadriyatlar, kommunikativ kompetensiya, ramziy tasvirlar, metaforalar, til birliklari.*

Dunyoning ma'lum bir tasviri ertaklarda ham shakllanadi va ertakning o'zi adabiyotning eng qadimgi janrlaridan biri hisoblanadi. Ertaklar xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Xalq donoligi, atrofdagi dunyo haqidagi bilim mahsuli hisoblangan ertak o'z-o'zidan madaniyat uchun muhim bo'lgan axloqiy va estetik qoidalar to'plami hamdir. Ertaklarda surreal belgilar, hodisalar va shartlarni kiritish, ko'p qiymatli ramziy tasvir va metaforalardan keng foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ertak nutqining bir qismi sifatida adabiy nutq ertak matnining kommunikativ vazifasini aks ettiradi. Ertak nutqi tarixiy jihatdan xalqning madaniy va ijtimoiy tajribasi, xalq hikmatlari, dunyo haqidagi bilimlar, shuningdek, o'ziga xos axloqiy va estetik kodni o'z ichiga oladi.





Bolaning, keyinchalik kattalarning olam va o'zini bilish bosqichlarini o'zida aks ettirgan ertaklar tili ibridoib xayoliy voqelikni qayta tiklashdan to ramziy va falsafiy fikrlashgacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. Bu tadqiqotchilarga etnik guruhning milliy o'ziga xosligining o'ziga xos xususiyatlarini, tafakkur rivojlanish dinamikasini va u tomonidan ishlab chiqilgan lingvomadaniy qadriyatlarni baholashga imkon berdi.

Tilshunoslikda tilning diskursiv jihatlarini o'rganishga qiziqishi ortishi, ertak obrazlarini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularning inson xatti-harakatlariga og'zaki ta'sirini aniqlash bilan bog'liq muammolarni yanada rivojlantirish zarurati bugungi kunda o'ta yuqori. Chunki hech bir til hodisalarini ularning diskursiv jihatlari hisobga olmagan holda, ulardan tashqarida adekvat tushunish va tasvirlab bo'lmaydi. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan kommunikativ muloqotning tarkibiy xususiyati sifatida ajratib ko'rsatilgan muloqot ohangi ertak nutqida ertak janriga qarab o'zgarib turadi.

Ertak nutqini o'rganish ko'plab olimlarni qiziqtirgan. Birinchilardan bo'lib bu atamani germaniyalik professor Jek Zayps o'z ishlarida qo'llaydi. Biz ertak nutqi janrining xarakterli xususiyatlarini quyidagicha belgilaymiz:

Nº	Ertak janri nutqining xarakterli xususiyatlari
1	Til birliklaridan tanlab foydalanish;
2	Nutqni ma'lum bir adresatga yo'naltirish (har qanday ertak ma'lum bir adresatga qaratilgan). Masalan, ertaklar ko'pincha bolalar uchun mo'ljallangan lekin kattalar ham qiziqish bilan ertak o'qiydilar, tinglaydilar, hattoki, bir vaqtlar rus podsholaridan biri uqlash uchun ertak tinglagani haqida ham ma'lumotlar bor;
3	Individual mualliflik mahorati (kommunikativ kompetensiya). Ertak hayol va sehrga asoslanganligi sababli, uni yaratgan muallif o'ziga xos tezkorlik va tasavvurga ega bo'lishi kerak va ertak nutqi uchun hikoyachi yuqori kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi shart;



4	Milliy o'ziga xoslikning mavjudligi. Nutq etnosning ijtimoiy-lingvistik tajribasi natijasi bo'lganligi sababli, unda dunyoning lingvistik kontseptual qadriyat qiyofasi, dunyoqarashi shakllanadi va unda ma'lum bir til guruhining madaniyati, urf-odatlari, an'analarini, turmush tarzi, til ongi ifodalananadi;
5	Muloqot maqsadiga ega bo'lish (ertak nutqining maqsadi tinglovchiga o'rnak, nasihat, hayotiy saboq berishdir. Shu bilan birga, ertak tinglovchiga bilim, kayfiyat, zavq bag'ishlaydi;
6	Nutq tajribasining mavjudligi - aholi orasida ertakchilarning borligi, ertaklarni tez-tez takrorlashi, ertak aytiladigan joylarning (majlislar, to'ylar, oila va boshqalar) mavjudligi va ularning har xil tarzda aytilishi bu fikrga yaqqol dalil;
7	Tipik nutq shakllarining mavjudligi (ertakning boshida, o'rtasida va oxirida qo'llaniladigan tipik shakllar);
8	Ertak turkumlarining mavjudligi.

Ertak nutqining nutq tajribasi ertakka xos bo'lgan maxsus til birliklariga ega. Ularni nutqning boshqa shakllarida topish mumkin emas. Masalan, "qadimda bir boy bo'lgan ekan...., "ming chaqirimdan mo'ljalni poylay oladigan mohir mengan". Ertak qahramonining o'ziga xos fazilatlari badiiy tasvir orqali beriladi, chunki mavhum hodisaning ma'nosini faqat badiiy usullar orqali tushuntirish va inson ongiga yetkazish mumkin. Masalan, "oltin baliq", "uchar gilam" va boshqalar. Qahramon portretini berishda ba'zan uning aniq ta'rifidan uzoqda bo'lish, ya'ni uni to'g'ri va aniq tasvirlamaslik ham ertakka xos bo'lgan yana bir yondashuvdir (Masalan, "ta'riflab bo'lmas go'zallik", "qalam bilan yozilmaydigan hikoya" kabi iboralar). Bu xususiyatlarning kamligini emas, balki ertaklarga xos bo'lgan lisoniy birliklarni tanlab qo'llashning o'ziga xos usuli ekanligini ko'rsatadi.

Ertak nutqi nutq ma'lum bir adresatga qaratilgan. XVII asrning chet ellik sayohatchilari Oleariy, Samuil Maskevichlar taajjub bilan yozadilarki, ruslar to'y



va yig‘inlarda ko‘ngil ochish maqsadida ertak aytadilar”. Xuddi shunday holatni Sharq xalqlarining mashhur “Ming bir kecha” ertagida ham uchratish mumkin. Vazirning dono va zukko qizi Shahrizoda podshoh Shahriyorga ma’lum bir sharoitda minglab kechalar ertak aytib beradi. Bu yerda ham tinglovchi shohdir. Shuni anglash qiyin emaski, o‘zbek xalqi orasida hikoya qiluvchining yoshi ijtimoiy guruhlarga ko‘ra har xil bo‘lgan. Va o‘zbek xalqi orasida ham maxsus ertakchilar bo‘lgan, ammo ular sayohat davomida yoki ma’lum makonda o‘yinkulgi, ma’rifiy maqsadlarda ertak aytib, tinglaganlar. Shunday ekan, ertak so‘zlovchisi ham, tomoshabin ham turli yoshdagi ijtimoiy guruhlar bo‘lganligini xulosa qila olamiz.

Ertak nutqining janr xarakteriga xos bo‘lgan yana bir xususiyat - bu shaxsiy mualliflik (kommunikativ kompetensiya). Ertak nutqidagi hayoliy tasavvur haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, lekin shu bilan birga, u o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Ertaklar nutqi real hayotga to‘g‘ri kelmasligi, real dunyoga zidligi, ertak voqeligini qurishda katta so‘z mahoratini, tez fikrlashni talab qilishi bilan ajralib turadi. Masalan, “Qirq yolg‘on” o‘zbek xalq ertagidagi bolaning yolg‘on yaratishdagi zukkoligi bunga yorqin misol bo‘ladi.

Tomoshabin yoki o‘quvchi ma’lum bir millat, elatning tabiatni, bilimi, urfatlari, dunyo qiyofasi ertak nutqining bir xil asosli tuzilishi orqali ko‘ra oladi. Ertakda insoniyatning orzulari sodir bo‘ladi. Hikoya real emas, balki hayratlanarli tarzda sodir bo‘ladi. Chunonchi, hikoyachilar o‘lmaslikni yoki o‘liklarni tiriltiradigan olamlarni ixtiro qilishadi. Masalan, rus ertaklarida uchraydigan “tirik suv” (“живая вода”), odamni yoshartiruvchi olma va o‘zbek ertaklari oxirida qahramonlar yoshlik davriga qaytadilar.

Xulosa qilamizki, ertak nutqining yuqorida qayd etilgan janriga xos xususiyatlar uni boshqa nutqlardan farqlash imkonini beruvchi asosiy mezonlardan hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акименко Н.А. *Лингвокультурные характеристики англоязычного сказочного дискурса. Дис. ... канд. филол. наук.* – Волгоград, 2005. – 78 с.
2. Городова Ю.С. Специфика сказочного дискурса в англоязычном эпосе. Выпускная квалификационная работа. – Белгород, 2017. – 72 с.
3. Плахова О. А. Дискурс, сказочный дискурс, текст, жанр, жанровая универсалия, жанрообразующая категория дискурса, фольклор, фольклорный жанр. //Вектор науки Т ГУ. 2015, №3-2. 251 с.
4. Померанцева Э. В. Судьбы русской сказки. – Москва: Наука, 1965. – 220 с.